

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi vazir o'rinbosari lavozimiga bo'sh ish o'rnini uchun tanlov e'lon qiladi

Nomzodga qo'yiladigan asosiy talablar:

- Iqtisodiyot, moliya, bank, kapital bozori yoki shu kabi sohalarda kamida 5 yillik ish tajribasi (faqat rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda), shu jumladan kamida 2 yillik iqtisodiyot va moliya sohasida rahbarlik lavozimlarida ishlagan bo'lishi;

- Iqtisodiy nazariya, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot sohasidagi bilimlarga ega bo'lishi, shuningdek, iqtisodiy tahlil qilish ko'nikmasi;

- Quyidagi yo'nalishlarda iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish tajribasi (qo'shimcha afzallik sifatida qabul qilinadi):

- amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat va tarkibiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda xalqaro iqtisodiy aloqalarni va iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirish;

- iqtisodiyotni boshqarish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida yangi yondashuvlarni joriy etish;

- xizmat ko'rsatish sohasi, innovatsion va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish;

- Xalqaro tashkilotlar (XVJ, BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari), XMI va XHMT (Jahon banki, OTB va boshqalar) bilan, shuningdek turli xalqaro iqtisodiy va integratsion platformalarda (YOII, JST) vakolatlar va muzokaralar o'tkazish qobiliyatlari mavjudligi;

- Tadbirkorlik va raqobat muhiti bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy tahlil qilish va ularning tartibga soluvchi ta'sirini baholash yuzasidan ko'nikmalarning mavjudligi, iqtisodiy boshqaruvda xalqaro standartlarni joriy etish, ishbilarmonlik muhiti rivojlanishini tizimli tahlil qilish, uni takomillashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash; ustuvor xalqaro reytinglarga muvofiq faoliyatning asosiy ko'rsatkichlariga (KPI) erishishni muvofiqlashtirish bo'yicha tadbirlarni o'tkazish;

- Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha tadbirlarni muvofiqlashtirish tajribasi; xizmat ko'rsatish sohasi ko'rsatkichlarini, shuningdek ularning respublikaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash va prognozlash bo'yicha ko'nikmalar;

- Boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish va amalga oshirish; ishbilarmonlik muzokaralarini o'tkazish qobiliyati; boshqa idoralar, davlat idoralari bilan o'zaro hamkorlik; qabul qilingan qarorlar oqibatlarini nazorat hamda tahlil qilish va prognozlantirish; natijalarga erishish uchun rag'batlantirish; jamoatchilik oldida so'zlash qobiliyati, konstruktiv tanqid qilish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- Jahon hamjamiyati bilan iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, xalqaro reytinglar va indekslar, moliyaviy xizmatlar, innovatsiyalar va raqamli iqtisodiyot sohasidagi umumiy bilimlar hamda

qonunchilik asoslari, shuningdek loyihalarni boshqarish asoslari bo'yicha bilimlarga ega bo'lish;

- Chet tillarini erkin darajada bilish (ingliz tili talab qilinadi), shuningdek, rasmiy ish yuritish va yozishmalar bo'yicha ko'nikmalar;

- Strategik (tizimli) fikrlash; kommunikatsion ko'nikmalar; professional darajani doimiy oshirib borishga intilish; bilim va ko'nikmalar; Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida; diplomatik protokol, diplomatik yozishmalar va hujjatlarni olib borish ko'nikmalariga ega bo'lish (qo'shimcha afzallik sifatida qabul qilinadi);

Vazir o'rinbosarining bo'sh lavozimiga nomzodlarni tanlash jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi;

1 - bosqich: joriy yilning **20-oktabrigacha** yuqoridagi talablarga javob beradigan nomzod elektron pochta orqali (shdumanov@mineconomy.uz) o'zlari to'g'risidagi ma'lumotlarni (CV, Word formatida) yuborishlari, shuningdek ushbu lavozimni tanlashni asosovchi, motivatsion-insho yuborishlari lozim. O'zingiz haqingizda ma'lumot va insho ikki tilda (o'zbek va ingliz) tayyorlanishi so'raladi.

Nomzod haqidagi ma'lumotlar Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo'limi xodimlari tomonidan ko'rib chiqiladi. 1-bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar suhbatga taklif qilinadi, bu haqda ularga shaxsan telefon (faks, elektron pochta) orqali suhbat o'tkaziladigan joy, uning sanasi va vaqti haqida ma'lumot beriladi.

2 - bosqich: 23-24 oktabr kunlari birinchi bosqichdan o'tgan nomzodlar bilan o'zbek, rus va ingliz tillarida suhbat o'tkaziladi.

3 - bosqich: Mas'ul shaxslar har bir nomzod uchun ballarni alohida ko'rib chiqadilar va hisoblaydilar, shundan so'ng tanlov natijalari e'lon qilinadi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining rasmiy web-saytida - www.mineconomy.uz, shuningdek har bir nomzod uchun elektron tanlov natijalari pochta orqali va telefon orqali e'lon qilinadi).

Barcha kerakli hujjatlar (nomzod to'g'risidagi ma'lumotlar (CV) va insholar) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish departamentiga - Shdumanov@mineconomy.uz elektron pochta orqali yuborilishi kerak.

Qo'shimcha ma'lumot uchun telefon (+99871) 232-64-83P